QURILISH SOHASI TUSHUNCHALARI VA TERMINOLOGIYASI

Sag‘dullayev Ma’ruf Ilhom o‘g‘li

Toshkent davlat tibbiyot universiteti

1-son o‘zbek va xorijiy tillar kafedrasi o‘qituvchisi

Email: marufsagdullayev045@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada qurilish sohasi tushunchalari va terminologiyasining nazariy asoslari yoritilgan. Unda qurilish faoliyatiga oid asosiy tushunchalar, ularning mazmun-mohiyati hamda terminologik tizimning shakllanish jarayoni tahlil qilinadi. Shuningdek, qurilish terminlarining lingvistik xususiyatlari, ularning manbalari va zamonaviy rivojlanish tendensiyalari ko‘rib chiqiladi. Maqolada terminlarni tartibga solish, standartlashtirish hamda milliy til asosida rivojlantirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: *termin, konsept, tushuncha, bino, inshoot, qurilma, atama, so‘z birikmasi.*

Аннотация. В данной статье освещаются теоретические основы понятий и терминологии строительной отрасли. В ней анализируются основные понятия, связанные со строительной деятельностью, их сущность и содержание, а также процесс формирования терминологической системы. Кроме того, рассматриваются лингвистические особенности строительных терминов, их источники и современные тенденции развития. В статье особое внимание уделяется вопросам упорядочения, стандартизации терминов и их развития на основе национального языка.

Ключевые слова: *термин, концепт, понятие, здание, сооружение, устройство, терминология, словосочетание.*

Abstract. This article discusses the theoretical foundations of concepts and terminology in the construction field. It analyzes the main concepts related to construction activities, their essence and content, as well as the process of formation of the terminological system. Furthermore, the linguistic features of construction terms, their sources, and modern development trends are examined. Particular attention is paid to the issues of systematization, standardization, and development of terminology based on the national language.

Keywords: *term, concept, notion, building, structure, device, terminology, word combination.*

Kirish. Qurilish sohasi insoniyat taraqqiyotining eng qadimiy va muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu soha jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim o‘rin tutib, infratuzilma, sanoat, uy-joy va boshqa ko‘plab obyektlarni barpo etish orqali inson hayotini yengillashtiradi. Qurilish sohasi o‘zining murakkabligi va ko‘p tarmoqliligi bilan ajralib turadi. Shu sababli unda qo‘llaniladigan tushunchalar va terminlar tizimli ravishda shakllangan bo‘lib, ular ilmiy va amaliy faoliyatning ajralmas qismi hisoblanadi.

Muhokama va natijalar

Qurilish — moddiy ishlab chiqarishning yirik sohalaridan biri; turli maqsadlardagi bino va inshootlarni qurish va rekonstruksiya qilish; ishni yuritish uchun foydalaniladigan hudud bilan birga qurilayotgan bino (inshoot); keng ma’noda yaratuvchilik jarayoni. Tugallangan va foydalanishga topshirish uchun tayyorlangan ishlab chiqarish korxonalari, turar joylar, jamoat binolari, inshootlari va b. obyektlar qurilish mahsulotlari hisoblanadi. Qurilishda ishlab chiqarish sikli nisbatan uzun bo‘lib (bir necha oydan bir necha yilgacha), ishlab chiqarish jarayoni turli ob-havo sharoitida ochiq usulda olib boriladi. Pudrat va xo‘jalik usulidagi qurilishni va montaj ishlarini, shuningdek, bino, inshootlarni kapital ta’mirlash ishlarini qurilish tashkilotlari va maxsus tashkilotlar; loyihalash, loyiha-konstruktorlik va qidiruv tashkilotlari; foydalanishga topshirish va razvedkaparmalash tashkilotlari amalga oshiradi. Tiklanadigan obyekt xususiyatlariga ko‘ra sanoat, transport, qishloq, suv xo‘jaligi, uy-joy, kommunal, ijtimoiy-madaniy va boshqa qurilishlarga bo‘linadi.[4]

Qurilish sohasi tushunchalari deganda, ushbu sohada qo‘llaniladigan asosiy nazariy va amaliy kategoriyalar tushuniladi. Jumladan, qurilishning o‘zi bino va inshootlarni loyihalash, barpo etish, ta’mirlash hamda rekonstruksiya qilish jarayonlarini o‘z ichiga oladi. Bino tushunchasi asosan inson yashashi yoki faoliyat olib borishi uchun mo‘ljallangan yopiq obyektni anglatadi, inshoot esa texnik yoki ishlab chiqarish vazifasini bajaruvchi qurilmalarni ifodalaydi. Bundan tashqari, loyihalash jarayoni qurilishning boshlang‘ich bosqichi bo‘lib, unda obyektning texnik chizmalari, hisob-kitoblari va umumiy konsepsiyasi ishlab chiqiladi. Qurilish materiallari tushunchasi esa ushbu jarayonda ishlatiladigan barcha tabiiy va sun’iy resurslarni qamrab oladi.

Qurilish amaliyotida ikki tushuncha, ya’ni “bino” hamda “inshoot” tushunchasi mavjud. Jamiyatning moddiy hamda ma’naviy ehtiyojlarini qondirish uchun kishilar tomonidan bunyod etilgan hamma qurilmalar inshoot deyiladi. Kishilarning biron bir ish faoliyatiga mo‘ljallangan va moslashtirilgan, ichki fazoga – bo‘shliqqa ega bo‘lgan yer usti inshootlari bino deb ataladi.[1] Bino va inshoot tushunchalarini G‘.A. Xakimov ham o‘z asarida bu tushunchani quyidagicha ta’riflaydi: Inson tomonidan jamiyatning moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini qondirish uchun bunyod etilgan, ichki hajmga, bo‘shliqqa ega bo‘lmagan barcha qurilmalar ishootlar deb ataladi. Insonning biror-bir faoliyat turiga mo‘ljallangan, ichki hajmga, bo‘shliqqa ega bo‘lgan har bir yer usti inshooti bino deyiladi.[2]

Qurilish terminologiyasi esa mazkur tushunchalarni ifodalovchi maxsus til birliklari majmuasidir. Ushbu terminlar qurilish jarayonini aniq, qisqa va tushunarli ifodalashga xizmat qiladi. Qurilish terminologiyasi tarixiy taraqqiyot davomida shakllanib, dastlab xalq tiliga xos oddiy atamalar asosida rivojlangan bo‘lsa, keyinchalik ilmiy-texnik taraqqiyot natijasida yanada boyib borgan. Ayniqsa, zamonaviy davrda yangi texnologiyalar, innovatsion materiallar va muhandislik yechimlari paydo bo‘lishi bilan terminologiya tizimi ham sezilarli darajada kengaydi.

Ma’lumki, zamonaviy o‘zbek qurilish terminologiyasi, uning boshlanishi uzoq o‘tmishga borib taqaladi, til taraqqiyotining barcha qonuniyatlari asosida rivojlangan va shu tariqa doimo boyib borgan. Natijada adabiy tilning alohida kichik tizimi – qurilish terminologiyasi shakllangan.[3]

O‘zbek qurilish terminologiyasi o‘zbek tilining ajralmas qismi sifatida o‘z taraqqiyotini juda qadim zamonlarda boshlagan. Xalqimizning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy rivojlanishi nafaqat tilda, balki uning qurilish terminologiyasida ham o‘z aksini topgan. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, uning asosiy fondini kelib chiqishi jihatidan umumturkiy terminlar tashkil etadi.[3]

Qurilish terminlarining shakllanishida turli omillar muhim rol o‘ynaydi. Birinchidan, ilmiy-texnik taraqqiyot yangi tushunchalarni yuzaga keltiradi va ular uchun yangi terminlar yaratiladi. Ikkinchidan, boshqa tillar ta’siri natijasida ko‘plab terminlar o‘zlashadi. Xususan, rus va ingliz tillaridan kirib kelgan “beton”, “armatura”, “konstruktsiya”, “montaj” kabi terminlar bugungi kunda keng qo‘llanilmoqda. Shu bilan birga, milliy til imkoniyatlari asosida yaratilgan “poydevor”, “devor”, “tom” kabi so‘zlar ham faol iste’molda bo‘lib, ular qurilish terminologiyasining muhim qismini tashkil etadi.

Qurilish terminologiyasi o‘zining lingvistik xususiyatlari bilan ham ajralib turadi. Avvalo, terminlar aniq bir tushunchani ifodalashi bilan xarakterlanadi, ya’ni ular ko‘p ma’nolilikdan xoli bo‘lishi kerak. Bundan tashqari, terminlar tizimlilik xususiyatiga ega bo‘lib, ular o‘zaro bog‘langan holda yagona terminologik tizimni tashkil etadi. Terminlarning yana bir muhim jihati – ularning barqarorligi va standartlashganligidir. Chunki qurilish sohasida noto‘g‘ri yoki chalkash terminlardan foydalanish amaliy xatolarga olib kelishi mumkin.

Bugungi kunda qurilish terminologiyasini rivojlantirish va takomillashtirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Xususan, terminlarning yagona shaklda qo‘llanishini ta’minlash, ortiqcha o‘zlashma so‘zlarni kamaytirish va ularning o‘rniga milliy muqobillarni yaratish

muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, terminlarni ilmiy asosda tartibga solish va maxsus lug‘atlar yaratish orqali ularni amaliyotga joriy etish zarur.

Xulosa qilib aytganda, qurilish sohasi tushunchalari va terminologiyasi ushbu sohaning ilmiy va amaliy rivojida muhim o‘rin tutadi. Tushunchalar mazmunni ifodalasa, terminlar esa uni til orqali aniq va tizimli yetkazib beradi. Shu bois qurilish terminologiyasini rivojlantirish nafaqat sohaning samaradorligini oshiradi, balki milliy tilning ilmiy salohiyatini ham yuksaltiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1 M.M.Miralimov, S.Sayfiddinov, M.B. Babajanov Arxitektura. Darslik, “Fan va texnologiya” nashriyoti, T.: 2016. 5-bet.

2 G‘. A. Xakimov Arxitektura (Fuqaro binolari arxitekturasi), T.: 2022. 7-bet.

3 Қ. Сапаев Строительная терминология узбекского языка. Дисс. фил. наук.

4 Milliy ensklopediya.

5 Aliyev, S., & Norboboyeva, S. (2026, March). MYOPIA: PREVALENCE, RISK FACTORS AND PREVENTION STRATEGIES IN MODERN STUDENTS. In CONFERENCE ON GLOBAL RESEARCH PERSPECTIVES (Vol. 4, No. 1, pp. 134-138).

6 Askaraliyevna, K. M. (2025). Total physical response method: highlighting aural comprehension in language learning. O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti konferensiyalari, 366-369.

7 Avezova, A. K. (2025, May). SIMPLE MEDICAL CONVERSATIONS IN UZBEK: A GUIDE FOR BEGINNERS IN HEALTHCARE. In E-Conference platform (Vol. 1, No. 20-may, pp. 45-47).

8 Avezova, A. K. P. Q. (2024). O ‘ZBEK TILI TALAFFUZ QOIDALARINI XORIJLIK TALABALARGA O ‘RGATISHDA Q, G ‘, X, U VA SH TOVUSHLARINING AHAMIYATI. Academic research in educational sciences, (1), 407-410.

9 Bobomurodova, G. I. (2024). The role of gender in compound words describing human appearance. Xorijiy lingvistika va lingvodidaktika – Zarubezhnaya lingvistika i lingvodidaktika – Foreign Linguistics and Linguodidactics, (2)(4).

10 Isomiddinova, D. (2026). Designing an ESP course for first-year medical students: A needs-based case study and content-oriented approach. European Journal of Pedagogical Initiatives and Educational Practices, 4(1).

11 Isomiddinova Diyora. (2026). LEARNING WITH CORPORA IN ENGLISH LANGUAGE TEACHING: PEDAGOGICAL IMPLICATIONS. Ta’limda Raqamli Texnologiyalarni Tadbiq Etishning Zamonaviy Tendensiyalari Va Rivojlanish Omillari, 53(1), 163-165.

12 Israilov J.D. AUTHENTIC MEDICAL TEXTS AS A FOUNDATION FOR DEVELOPING PROFESSIONAL ENGLISH COMPETENCE IN MEDICAL EDUCATION. (2025). Global Science Review, 11(1), 279-289.

13 Israilov, J. D. (2025,). The Role of Professionally Oriented Medical Texts in Forming Lexical and Discursive Competence in Medical English. In VII International Mediterranean Scientific Research Congress.–Hatay Mustafa Kemal University, Hatay, Türkiye.–13–15 June (pp. 754-758).

14 JUMANAZAROVNA, B. (2025). USING INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN TEACHING ENGLISH TO MEDICAL STUDENTS. INTERNATIONAL JOURNAL, 5(3), 18-20.

15 Xushbaroy, B. (2025). Effective strategies for teaching English as a foreign language (EFL). EduVision: Journal of Innovations in Pedagogy and Educational Advancements, 1(5), 863-867.

16 Kadirova L.U., ПЕРЕВОДЫ ЗАИМСТВОВАННЫХ МЕДИЦИНСКИХ ТЕРМИНОВMODERN SCIENTIFIC RESEARCH INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL. , 2024-yil.

17 Kadirova L.U., Prince Kumar Гомеопатия в Индии-популярность, развитие и вызовы // International journal of advanced research in education, technology and management. -pp61-65, 2025-yil. vol4, issue 2,2025.

18 Kakhorova, M., & Maqsudjonov, S. (2025). THE COMMON HEALTHCARE APPROACHES IN THE ERA OF GRECO-ROMAN ANTIQUITY. Journal of Applied Science and Social Science, 1(1), 3-6.

19 Madinabonu, J. (2024). SOCIOLINGUISTIC FACTORS THAT IMPACT THAT STUDENTS'LANGUAGE LEARNING. Web of Teachers: Inderscience Research, 2(11), 94-96.

20 Madinabonu, J. (2025). ENHANCING ENGLISH LANGUAGE LEARNING THROUGH MOBILE TECHNOLOGIES: A STUDY OF MALL. EduVision: Journal of Innovations in Pedagogy and Educational Advancements, 1(5), 850-858.

21 Muhammedova, O. A., & Hamrayeva, D. (2026). Global tibbiy kommunikatsiyada lotin terminologiyasining standartlashtiruvchi roli. Медицинский журнал молодых ученых, 413–418.

22 Norboboeva, S. A. (2025, May). USING TASK-BASED LEARNING TO TEACH MEDICAL ENGLISH IN INTERNATIONAL CLASSROOMS. In E-Conference platform (Vol. 1, No. 20-may, pp. 208-209).

23 Rakhmatova, N. (2025). INNOVATSION METODIK YONDASHUVLAR ASOSIDA TIBBIYOT YO'NALISHIDA TAHSIL OLAYOTGAN TALABALARGA CHET TILINI O'QITISHNI TAKOMILLASHTIRISH. Filologiya va pedagogika, 14(18).

24 Rakhmatova, N. (2025). THE IMPACT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE (AI) TOOLS ON FOREIGN LANGUAGE TEACHING METHODOLOGY: A CRITICAL ANALYSIS OF OPPORTUNITIES AND CHALLENGES. Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture, 5(12), 79–82.

25 Абдуллаев М. К. ИНТЕГРАТИВНЫЙ ПОДХОД К ФОРМИРОВАНИЮ ИНОЯЗЫЧНОЙ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ В УСЛОВИЯХ МНОГОЯЗЫЧНОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЫ //Журнал гуманитарных и естественных наук. – 2026. – №. 34 [1]. – С. 212-221.

26 Абдуллаева, Р. М. (2022). Интеграция С Клиническими Дисциплинами В Медицинском Вузе При Обучении Русскому Языку Специальности. Central Asian Journal of Medical and Natural Science, 3(6), 94-97.

27 Абдуллаева, Р. М. (2016). Своеобразие системы образования великобритании. Ученый XXI века, (3-4).

28 Бобомуродова, Г. И. (2025, November). Геймификация как средство повышения учебной мотивации студентов-медиков при изучении английского языка в контексте ESP. Latin American Journal of Education, 5(6).

29 Мухаммедова, О. А., & Солиев, С. Ш. (2025). Составные части и категории медицинских терминов. Медицинский журнал молодых ученых, 340–342.

30 Алибекова Л. Р. " ЖИВОЙ" РУССКИЙ: КАК СДЕЛАТЬ ЗАНЯТИЯ ПО РУССКОМУ ЯЗЫКУ ИНТЕРЕСНЫМИ ДЛЯ СТУДЕНТОВ-МЕДИКОВ //E-Conference platform. – 2025. – Т. 1. – №. 20-may. – С. 24-27.

31 Алибекова Л. Р. ИСПОЛЬЗОВАНИЕ КРЫЛАТЫХ ВЫРАЖЕНИЙ В МЕДИЦИНЕ, И ИХ РОЛЬ В ФОРМИРОВАНИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КАЧЕСТВ БУДУЩЕГО ВРАЧА //E-Conference platform. – 2025. – Т. 1. – №. 20-may. – С. 28-30.